



YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA ZAMONAVIY TARBIYA TEKNOLOGIYALARI ZARURIYATI

Mamatova A.M.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
mustaqil tadqiqotchi*

Tayanch so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, zamonaviy tarbiya, texnologiyalar zaruriyati, yangicha yondashuvlar, mazmun va mohiyat, tavsif va samara.

Ключевые слова: новый Узбекистан, современное воспитание, необходимость технологий, новые подходы, содержание и сущность, описание и эффект.

Key words: new Uzbekistan, modern education, the need for technology, new approaches, content and essence, description and effect.

Резюме:

Ushbu maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida zamonaviy tarbiya texnologiyalariga bo‘lgan zaruriyat masalasi to‘g‘risida fikr yuritilgan va unda mualliflarning individual yondashuvlari taqdim etilgan.

Резюме:

В статье рассмотрен вопрос о необходимости современных воспитательных технологий в условиях нового Узбекистана и представлены индивидуальные подходы авторов.

Summary:

The article considers the need for modern educational technologies in the conditions of the new Uzbekistan and presents the individual approaches of the authors.

Kirish. Yangi O‘zbekistonni barpo etish va unda taraqqiyotning yangi asoslarini yaratish jarayonida barcha sohalar qatorida tarbiya masalasiga ham alohida yondashish taqozo etiladi. Bunda yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan tarbiyaning jismoniy, maktabgacha sog‘lom avlod va inklyuziv turlariga alohida e‘tibor berish maqsadga muvofiq hisoblanadi[1;48,50,52-moddalar]. Aynan tarbiyaning mana shu shakllari yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda aks etishining sababi jamiyatda zamonaviy tarbiya texnologiyalari zaruriyatiga extiyoj mavjudligini anglatadi. Shu jihatdan Konstitutsiyamizda ifodalangan tarbiyaning bu turlari maktabgacha, inklyuziv va jismoniy tarbiya vositasida sog‘lom avlod tarbiyasini amalga oshirish belgilanganligi Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti sharoitida muhim yo‘nalishlardan



hisoblanadi. Shu jihatdan jamiyatimizda zamonaviy tarbiya texnologiyalari zaruriyati masalasi bo'yicha aniq fikrlarga kelish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu o'rinda ana shu masalaning taxliliga e'tiboringizni tortamiz.

Natija. Yangi O'zbekiston sharoitida zamonaviy tarbiya texnologiyalariga bo'lgan zaruriyatni anglash va ular bo'yicha muayyan tushunchalarga kelish dolzarb bo'lib turibdi. Bunda yondashuvlarning zamonaviyligi va istiqbolli ekanligiga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

“Yangi O'zbekiston” g'oyasi mazmuni. “Yangi O'zbekiston” g'oyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan 2021 yilda taklif qilingan bo'lib, uning mazmuniga ko'ra O'zbekistonda barcha yo'nalishlar yangilanishi lozim va bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat barpo etilishi kerak[2,10-15]. Bunda Yangi O'zbekiston sharoitida eng avvalo ta'lim va tarbiya jarayonini isloh qilish va uning vositasida yangi avlod shaxslarini voyaga yetkazishga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Shu jihatdan “O'zbekiston-2030” strategiyasi qabul qilinib, unda Yangi O'zbekistonni barpo etishning konseptual asoslari belgilab olindi[3, 1-yo'nalish]. Bu o'rinda yangi O'zbekiston g'oyasining mazmuni tarbiya masalasida quyidagilarni ifodalashini eslatib o'tish joiz:

- 1) tarbiya oluvchilarning ongi va dunyoqarashida ijtimoiy adolat tushunchalarini tarkib toptirish;
- 2) tarbiya oluvchilarda ijtimoiy axloq ko'nikmalarini tarkib toptirish;
- 3) tarbiya oluvchilarni insoniy muomalaga o'rgatish;
- 4) tarbiya oluvchilarni ijtimoiy faollashtirish.

Shu jihatdan Yangi O'zbekiston g'oyasining mazmunida tarbiya jarayonini amalga oshirish uchun adolat, axloq, muomala va faollik mezonlariga asoslanish yangicha yondashuv hisoblanadi. Mazkur masalada shuni ta'kidlash lozimki, agar mazkur mezonlarga to'g'ri yondashilsa va ular asosida tarbiyaviy imshlar amalga oshirilsa, jamiyatimizda barpo etilayotgan hamda ustuvor maqsadga aylangan Yangi O'zbekiston g'oyasini amalga oshirish imkoniyatlari kengayadi. Bizning yondashuvimizga ko'ra, yangi jamiyat sharoitida barcha sohalar qatorida tarbiya yo'nalishi ham yangilanishi va zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirilishi kerak. Shu sababli hozirgi zamon jamiyatimizda zamonaviy tarbiya texnologiyalari zaruriyatining birlamchi tayanchlaridan biri Yangi O'zbekiston g'oyasi hisoblanadi. Bu g'oyani to'liq idrok etmasdan, zamonaviy tarbiya texnologiyalarini tushunish yoki uning zaruriyatini his qilish mumkin emas. Shu ma'noda Yangi O'zbekiston g'oyasi mazmuni bo'yicha keng ko'lamlil tahlil, talqin va targ'ibot ishlarini amalga oshirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.



“Zamonaviy turbiya” tushunchasi mohiyati. Pedagogik olimlar zamonaviylik tushunchasini bugungi kun muammolariga javob beradigan yechimlar majmui sifatida qabul qilishadi[4,171]. Ayni paytda, biz tomonimizdan “zamonaviy tarbiya” tushunchasining mohiyati quyidagicha idrok etiladi:

- 1) zamonaviylik hozirgi zamon tarbiya asoslarini yangilash, uning muammolarini yorqin namoyon qilish va takomillashtirish asoslarini belgilaydi;
- 2) zamonaviy tarbiya tushunchasida mavjud tajribalardan foydalangan holda tarbiya masalasidagi bugungi kun ehtiyojlariga javob beradigan mezonlarni belgilab olish, uning metodikasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish masalalari muhim o‘rin tutadi;
- 3) zamonaviy tarbiya tushunchasida bugungi kunda tarbiyalanayotgan shaxsning ertangi faoliyati aniq idrok etiladi.

Aynan mana shunday yondashuv asosida zamonaviy tarbiya tushunchasini idrok etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Demak, zamonaviy tarbiya – bu bugungi kunda eng muhim bo‘lgan tarbiyaviy asoslarga tayangan holda shaxsni voyaga yetkazish va uni faoliyatga tayyorlash omilidir. Bunday yondashuv zamonavi tarbiya tushunchasining ma’no-mohiyatini to‘g‘ri anglab olish va u asosda bugun natija beradigan tarbiyaviy amlaga oshirishni idrok etishni taqozo etadi. Bizning yondashuvimizga ko‘ra, zamonaviy tarbiya tushunchasi barcha davrlarda va barcha jamiyat taraqqiyoti davrida o‘z davridagi tarbiya muammolarini hal etish indikator sifatida mavjud bo‘lib kelgan. Shu ma’noda mazkur masalada mashhur jadid pedagogi Mahmudxo‘ja Behbudiyning (1875-1919) “Tilda, fikrda va ishda birlik” tamoyili esga tushadi[5,19]. Bu tamoyilga ko‘ra, zamonaviy tarbiyaning asosini tilda, ya’ni tarbiya oluvchining o‘z ona tilisi vositasida voyaga yetishi, fikrda, ya’ni nosandart fikrlash asosida tarbiya oluvchilarni dunyoqarashini bugungi kun talablari asosida tarkib toptirish va ishda, ya’ni tarbiya oluvchilarni faoliyatga munosib tayyorlashda hozirgi zamon ehtiyojdlari asosida yondashish majmuini tashkil qiladi. Demak, tilda, fikrda va ishda birlik – bu bizning bugungi zamonaviy tarbiya tushunchamizning mohiyatini tushinishda ham muhim o‘rin tutadi. Mazkur masalani ana shunday idrok etish muhim ahamiyatga egadir.

“Zamonaviy tarbiya texnologiyalari” atamasi tavsifi. Texnologiya deganda mahorat va san’atning uyg‘unlashgan holda muayyan yangi ishlab chiqarish mahsulotlarini nazarda tutish pedagog olimlar tomoindan qabkul qilingan. Bunda texnika va san’at imkoniyatlari uyg‘unlashtiriladi, uning natijasida yangi texnologik asoslarga ega ishlanmalar yaratiladi. Shu jihatdan bizning yondashuvimizga ko‘ra, “zamonaviy tarbiya texnologiyalari” atamasi tavsifi quyidagilardan iborat:



1) tarbiyada qo‘llaniladigan mahorat va san‘atning bugungi kun talablari asosida tarkib topganligi va tarbiya jarayonini tezkor amalga oshirish xususiyatga ega bo‘lishi;

2) tarbiyani amalga oshirishda qulay, oson, oddiy va samara beruvchi vositalarga asoslangan hamda tarbiya oluvchilarning imkoniyatlariga mos vositalarning majmui;

3) zamonaviy tarbiya texnologiyalari mavhumlikdan xoli bo‘lgani holda muayyan shaxs yoki jamoani to‘g‘ri tarbiyalash va to‘g‘ri yo‘naltirish mezonlariga asoslanishi;

4) mazkur tushunchada tarbiyadagi mahorat, san‘at va texnik imkoniyatlarning uyg‘un bo‘lishi.

Shu jihatdan “zamonaviy tarbiya texnologiyalari” deganda tarbiyani amalga oshirishdagi mahorat, san‘at va texnik imkoniyatlardan uyg‘un foydalanish tushunilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Biz mazkur yondashuv asosida zamonaviy tarbiya texnologiyalarini idrok etish to‘g‘ri mo‘ljallarni beradi, deb hisoblaymiz. Aynan mana shularning barchasi zamonaviy tarbiya texnologiyalarining zaruriyatini tushunishda muhim o‘rin tutadi.

E‘tibor berilsa, zamonaviy tarbiya texnologiyalarini ishlab chiqish zaruriyatida uch muhim masala katta ahamiyatga egadir: 1) Yangi O‘zbekiston g‘oyasi mazmunini anglash; 2) zamonaviy tarbiya tushunchasini muammoning hal qilish vositasi sifatida tushunish va 3) mahorat, san‘at hamda texnik imkoniyatlar mujassam bo‘lgan tarbiya jarayonini amalga oshirish. Ana shunday tushunish bugungi jamiyatimizda zamonaviy tarbiya texnologiyalariga bo‘lgan zaruriyatni oqilona idrok etish imkonini beradi.

Yangi O‘zbekiston sharoitida zamonaviy tarbiya texnologiyalariga bo‘lgane zaruriyatni ilmiy, pedagogik va texnologik jihatdan idrok etish, uning ijtimoiy va tarbiyaviy ahamiyatini tushunish, mazkur masala bo‘yicha yondashuvlar va qarashlarni o‘zgartirish, nostandart va yangi tajriba-sinovlardan cho‘chimaslik mezonlari yangilangan jamiyatimiz sharoitida tarbiya mazmuni, uning asoslari va natijalarini yangilash imkonini beradi. Agar bugungi kundagi zamonaviy tarbiya texnologiyalariga bo‘lgan zaruriyat to‘g‘ri idrok etilsa, Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining eng muhim asoslaridan birini yaratish imkonini beradi.

Xulosa va tavsiyalar. Yangi O‘zbekiston sharoitida zamonaviy tarbiya texnologiyalariga bo‘lgan zaruriyatni idrok etish bugungi kundagi muhim pedagogik vazifalardan biridir. Chunki bunda Yangi O‘zbekiston g‘oyasi mazmuni bo‘yicha keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirish taqozo etiladi. Aynan mana shu g‘oya asosida yangilangan jamiyatimizda yangi va zamonaviy tarbiya



jarayonlarini yo‘lga qo‘yish taqozo etiladi. Shu jihatdan, zamonaviy tarbiya va zamonaviy tarbiya texnologiyalari tushunchalarining mazmun, mohiyati ham nostandart yondashuvlar asosida tushunilishi muhim ahamiyatga egadir. Mazkur masalalarda bizning asosiy xulosamiz shunday: Yangi O‘zbekiston g‘oyasi asosida tarbiya asoslarini bugungi kun talablariga moslashtirish va uni amalga oshirish texnologiyalarini hozirgi zamon tarbiya jarayoni bo‘yicha muammolarini hal etishga yo‘naltirish mumkin bo‘ladi.

Yangi O‘zbekiston sharoitida zamonaviy tarbiya texnologiyalariga bo‘lgan zaruriyatni idrok etish uchun ta‘lim jarayonida malga oshirilayotgan tarbiya asoslarini tahlil qilish, uning yutuqlari va kamchiliklarini qiyoslash, tarbiyaga bo‘lgan bugungi yangi extiyojlarni idrok etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Demak, mamlakatimiz ta‘lim tizimida amalga oshirilayotgan tarbiya jarayoni ishlarida pedagoglarning yanada faol bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘ladi va bu borada bo‘lajak pedagoglarning imkoniyatlariga tayanish muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qilishini alohida ta‘kidlash lozim.

Yangi O‘zbekiston sharoitida zamonaviy tarbiya texnologiyalariga bo‘lgan zaruriyatni idrok etish masalasi bo‘yicha amaliyotchi o‘qituvchilar, bo‘lajak o‘qituvchilar va pedagog olimlarning keng muhokamalarini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. –Toshkent, 2022
3. “O‘zbekiston-2030” strategiyasi. // www.ziyonet.uz
4. Mualliflar jamoasi. Ma‘naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. – Toshkent, 2010
5. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent, 2008